

INGLIZ VA O'ZBEK TILI HUQUQIY MATNLAR LISONIY KORPUSINI YARATISHDA SO'ZLAR BAZASINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI (KONSTITUTSIYA VA SAYLOV QONUNCHILIGI MISOLIDA)

*M. Raximov*¹

Annotatsiya:

Korpus lingvistikasi zamonaviy tilshunoslikning rivojlanayotgan sohalaridan biri bo'lib, mamlakatimizda mazkur sohada o'z yechini kutayotgan muammolari ko'pchilikni tashkil qiladi. Huquqiy matn korpuslarini yartaishning muammolari va yechimlari mazkur tadqiqotda o'z aksini topgan. Mavjud muammolar yechimi qiyosiy tahlil va etimolgik taqqoslanishlar asosida o'rganib chiqildi. Tadqiqot natijasi huquqiy – terminologik klassifikatsiyada mujassamlashtirildi. Huquqiy matnlar lisoniy korpusini yaratish murakkabligi uning yechimida inson omilining aralashuvi orqali amalga oshirilishi tadqiqotda xulosalanadi.

Kalit so'zlar: huquqiy matn, lisoniy korpus, so'z ba'sasi, konstitutsiya, saylov qonunchiligi

doi: <https://doi.org/10.2024/yd2zcg41>

Lisoniy korpuslarni yaratish bevosita turli uslubdagi og'zaki hamda yozma nutq matnlari bilan bog'liq fenomendir. Matnlarni yaratilishi ham murakkab jarayon bo'lib, yaratuvchidan ma'lum sohaning bilim, ko'nikma hamda malakasini talab qiladi. Har bir tilda huquqiy terminologiya va huquqiy matnlarni yaratishda huquqiy bilim, milliy qadriyatlarga oid savodxonlikdan tashqari lisoniy kompetensiya ham kerakdir.

Huquqiy terminologiyani tanlashda uni barcha qatlam vakillari uchun tushunarli leksik birliklar, hamda uslubda yozish boshqa matnlardan ajralib turishini belgilab beradi. Grammatik vositalarni, jumladan so'z yasalishi strukturasi, mayl, zamon hamda sintaktik vositalarning to'g'ri tanlanishi huquqiy matnlarning asosiy tamoyillarini belgilaydi. Grammatik fenomenlarni to'g'ri qo'llashdan tashqari, matnlarni tuzishda huquqiy terminologiyani o'z o'rnida xatosiz qo'llay olish mahoratini puxta egallash ham matn tuzuvchilar oldida mas'uliyatni belgilaydi. Mazkur fikrni izohlashda H.A Kerimov shunday g'oyani ilgari suradi: "Noto'g'ri yoki o'rinsiz qo'llangan so'z yoki ibora fikr va uning matn ifodasi o'rtasidagi tafovut ba'zan og'ir oqibatlariga olib kelishi mumkin. Ayniqsa qonun ijodkorligi sohasida."²

Huquqiy matnlarni ifodalashda yangi terminologiya, ya'ni "qonun tili" atamasi shakllangan bo'lib, bu borada ham olimlar tomonidan bir necha tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, fransuz huquqshunos olimi F. Jenyaning fikricha, qonun

¹ *Raximov Mubin Muradovich, Buxoro davlat pedagogika instituti o'qituvchisi*

² Керимов. Д. А. Законотетельная техника: науч.-метод. и учеб. Пособие. М.: НОРМАИНФРА-М 1998. ст.123.

ijodkorligi va huquqni qo'llash faoliyatida qo'llanadigan qonunchilik tafakkurini lingvistik shaklda gavdalantirishning maxsus vositalari va usullari mavjud. Bu vositalar qonun oldida turgan alohida vazifalar, mavzuni ko'rsatishning o'ziga xos usuli, qonun chiqaruvchi fikrini ifodalash uchun tilning maxsus lug'at tarkibi tufayli adabiy nutqning mustaqil qonunchilik uslubini ajratib ko'rsatishga asos bo'ladi.¹ Huquqiy matnlarning boshqa matnlardan yana bir farqli jihati-bu ularning funksional o'zgarimasligidadir, ya'ni maxsus terminologilarning faqat birta o'zgarimas ma'noda qo'llanishidir.

Huquqiy matnlarning yana bir farqli xususiyati rasmiy uslub hamda aniqlik bo'lib, har ikkalasini lingvistik vositalarsiz ifodalash imkonsiz. Bu o'rinda lingvistik fenomenlarni ifodalashda morfologik hamda sintaktik qurilmalarni rasmiy uslubga moslashtirgan holda hech qanday o'zgarishsiz qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Gap tuzilish strukturasi, fe'l zamonlarining ma'lum me'yorda ishlatilishi, nisbatlarni to'g'ri qo'llash, kelishiklarning ifodalanishi, atoqli otlarni va so'z birikmalarini qo'llashda mazmun barqarorligini saqlab qolish kabi lisoniy kompetensiyalarni puxta egallash huquqiy matnlarning kamchiliklarsiz tuzilishini ta'minlaydi.

Huquqiy matnlar deyilganda ma'lum bir jamiyat tomonidan tartibga solingan, amal qilinishi majburiy bo'lgan xatti -harakatlar majmuasini lingvistik vositalar asosida ifodalanishi tushuniladi. Shubhasiz har bir davlatning asosiy etalon hisoblangan bosh qomusi bo'lib, mamlakatning qolgan qonun hujjatlari undan andaza olgan holda, me'yorlarini buzmaganda qabul qilinadi. Konstitutsiya matnlari har bir jamiyatning ijtimoiy kelish chiqishi, shaklanishi va madaniy hayotidan kelib chiqqan holda tuziladi. Konstitutsiya matnlarini tuzishda asosiy e'tibor barcha qatlam uchun tushunarli bo'lgan terminologiyalardan foydalanish, rasmiy uslubni saqlab qolish, punktuatsiyani to'g'ri qo'yish bilan bir qatorda gramatik qurilmalarni o'z o'rnida qo'llashga ham qaratiladi.

Har bir davlatning huquqiy me'yorlaridan o'rin olgan qonun, kodeks, qaror, farmon, farmoyish buyruq va boshqa normativ hujjatlar ma'lum bir o'zgarimas qolip hamda uslubda yoziladi. Matnlarni shakllantirishda asosiy omil bo'lib mamlakat konstitutsiyasida yozilgan me'yorlar xizmat qiladi. Huquqiy matnlarning lisoniy korpusini yaratishda qanday huquqiy me'yoriy hujjatni tanlash muammosi bo'lib, bunda yaratiladigan korpus tilida milliy qonunchilik matn tarjimalarining mavjudligi katta ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ingliz tili mamlakatlar qonunchilik hujjatlari milliy qonunchilik hujjatlari bilan solishtirilishi maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasi hozirgi davr qonunchiligini 1991 yildan so'ng qabul qilingan huquqiy normativ hujjatlar tashkil qiladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 1992 yil 8 dekabrda qabul qilgan bo'lib, 2023 yil 30 aprel referendum orqali yangi konstitutsiyaga o'zgartirildi. Tadqiqotda 2023 yil 30 aprelda qabul qilingan yangi konstitutsiya matnlarining korpusi yaratilishi bo'yicha izlanishlar olib borildi. Tadqiqot davomida yartilgan korpusdan o'rin olgan Amerika Qo'shma Shtatlarining konstitutsiyasi 1787 yilda qabul qilingan bo'lib, o'z ichiga "Bill of rights" huquqlar hujjatini ham mujassamlashtirgan. Buyuk Britaniya konstitutsiyasi 13 asrdan boshlab qabul qilingan *Magna Charta Libertatum* (Erkinliklarning buyuk xartiyasi) dan tortib, 1928 yilga joriy qilingan Xalq vakilligi (teng franchayzing) qonuni o'z ichiga

¹ Карташев.В.Н. Юридическая техника, тактика, стратегия и технология. Н.Новгоро д, 2000. ст. 167.

olgan yozilgan hamda yozilmagan qonunlarni o'z ichiga oladi. Tadqiqotda Buyuk Britaniya konstitutsiyasining 2023 yilga amal qilgan matni kiritildi. Tadqiqotning navbatdagi ob'ekti bo'lmish Avstraliya konstitutsiyasi 1901 yilda qabul qilingan va eng oxirgi o'zgartirish 2023 yilda kiritilgan. Qonunchilik nuqtai nazaridan kelib chiqib eng asosiy davlat qomusi hisoblangan davlatlarning konstitutsiyalari lisoniy korpus yaratishdagi asosiy ob'ektlar sifatida o'rganib chiqildi. Keyingi ob'ektlarni tanlashda inglizabon mamlakatlar hamda O'zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlari o'rganib chiqildi. Bu borada mamlakatlarning qonunchilik tizimlari tarixi, o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish talab qilinadi. Olib borilgan tahlil natijalari quyidagi jadvalda o'z aksini topgan. (jadval).

Mamlakat	Konstititsiya	Kodekslar	Qonunlar	Boshqa qonun me'yorlari
AQSh	1787 yil qabul qilingan	54 bo'lim (qonunlar jamlanmasi)dan iborat AQSh kodeksi (The US Code)	Kodeks bo'limlari, Shtatlar qonunlari (legislation of states), umumiy qonunlar tizimi (common law system)	
Buyuk Britaniya	12 asrdan 18 asrgacha bo'lgan kodlashtirilmagan qonunlar to'plami	Mavjud emas	Umumiy qonunchilik tizimi (common law system); Maqom qonunlari (status laws system); Shotlandiya qonunlari (Scots laws)	Erkinliklar Buyuk xartiyasi (Magna Charta libertatum); Huquqlar to'g'risidagi Petitsiya (Petition of rights); Xabeas korpusi akti (Habeas corpus of Acts); Huquqlar to'g'risidagi Bill "Sub'ektning huquq va erkinliklarini e'lon qiluvchi va tojning merosxo'riligini belgilovchi akt" (Bill of rights "An Act declaring the Rights and Liberties of the Subject and Settling the

				Succession of the Crown) ¹
Avstraliya	1901 yilda qabul qilingan	Davlat kodeksi (state code); Jinoyat kodeksi (criminal code)	Turli yo'nalishlardagi 19 ta qonun to'plamlari; Mahalliy Avstraliya qonunlari (Indigenous Australian laws)	Statutlar - nizomlar (statutes); ajrimlar (regulations);
O'zbekiston	1992 yilda qabul qilingan, 2023 yilda yangilangan	19 ta kodeks	17 ta amal qilinayotgan qonunlar	Qaror, farmon va farmoyishlar

Mamlakat siyosiy hayotini belgilovchi qonunchilik jarayoni bo'lmish saylovlar tizimi ham tahlil qilindi. Amerika Qo'shma Shtatlari saylov qonunchiligi AQSH kodeksining 52 bo'limida ko'rsatilgan bo'lib, yagona kodeks holda shakllantirilmagan. Mazkur saylov qonunchiligi matni konstitutsiya va boshqa qonunchilik hujjatlarida belgilangan paragraph, bo'lim, bob, va qismlarni o'zida mujassamlashtirgan. Qonun matnida Amerika Kongressi, prezidenti hamda shtatlar meri uchun saylovlarni o'tkazish tartibi belgilangan².

Buyuk Britaniya saylov qonunchiligi matni bir necha yillar davomida qabul qilingan qonunlarni jumladan, 2000 yildagi "Siyosiy partiyalar, saylovlar va referendumlar to'g'risida"gi qonun; 1911 va 1949 yillardagi parlament aktlari; 2002 yilgi Yevropa parlamentiga saylovlar to'g'risidagi qonun; xalq vakilligi to'g'risidagi 1867, 1918, 1949, 1969 yillarda qabul qilingan qonunlar va hokazo³. Saylov qonunchiligida Buyuk Britaniya Parlamenti, Shotlandiya Parlamenti, Shimoliy Irlandiya Assambleyasi, Uels milliy Assambleyasi, mahalliy o'zini -o'zi boshqarish organlari, graflik va okrug kengashlari, merlar hamda politsiya komissarini saylash bo'yicha matnlar o'rin olgan.

Avstraliya saylov qonunchiligi bir qator qonun hujjatlari asosida tuzilgan bo'lib, yagona qonun shakliga keltirilgan. Qonun matnida Avstraliya Kengashi Parlamentiga saylovlar o'tkazish tartibi keltirilgan bo'lib, boshqa mamlakat qonunchilidan farqli jihat saylovlarda qatnashish har bir saylovchi uchun majburiy qilib belgilangan⁴.

Jadvalda keltirilgan qiyosiy tahlillar har bir mamlakatning boshqaruv tizimida alohida qonunchilikka tayanishini ko'rsatib beradi. Shuningdek har ikkala qonun hujjatlarini qabul qilishda har bir mamlakat uchun taraqqiyot davriyligi ham turlichadir.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqqan holda, konstitutsiya va saylov qonunchiligi lisoniy korpus yaratish ob'yekti sifatida tanlandi. Har bir mamlakat konstitutsiyasi asosiy huquqiy normativ hujjati bo'lib, odatda uzoq muddat barqarorligini saqlaydi, shu bilan birga boshqa barcha huquqiy hujjatlar matnlari

¹ Mazkur qonun hujjatlari birgalikda Buyuk Britaniya konstitutsion tizimini tashkil etadi.- Дайси А. В. Основы государственного права Англии. М.: Изд-е Тов-ва И. Д. Сытина, 1905.

² <https://www.usa.gov/state-local-elections> (murojaat sanasi: 02. 08. 2024.)

³ <https://cyberleninka.ru/article/n/pravovoe-regulirovanie-vyborov-v-soedinennom-korolevstve-velikobritanii-i-severnoy-irlandii/viewer> (murojaat sanasi: 02. 08. 2024)

⁴ https://www.democracy.ru/library/foreign/countries/australia/rus_1991-2.html (murojaat sanasi: 02. 08. 2024)

uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Mamlakat konstitutsiyasi o'zgarganida barcha qolgan huquqiy hujjatlar-kodeks, qonun, qonun osti hujjatlari ham unga mos ravishda o'zgaradi.

Saylov qonunchiligi har bir jamiyatning yashash tarzi, boshqaruv tizimi, huquq – tartibot normalarini, jamiyat shaklini belgilashda xizmat qiluvchi norma bo'lib hisoblanadi. Saylov qonunchiligi matnlarini yaratishda xalqchilik prinsiplariga ham amal qilinadi. Saylov qonunchiligi matnlari yaratilishida ham mamlakat konstitutsiyasi andaza bo'lib xizmat qiladi.

Har ikkala (o'zbek va ingliz) tilda gaplashiladigan mamlakatlarda konstitutsiya va saylov qonunchilik normalari ishlab chiqiladi hamda amal qilinadi.

Huquqiy matnlar lisoniy korpusini yaratishning bir qator muammolari ham bo'lib, ular quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- Har ikkala huquqiy hujjat matnlarining davr o'tishi bilan o'zgarib takomillashib borishi;

- Lisoniy korpus mutlaq jarayon emas, balki doimiy to'ldirilib, yangilanib boriladi;

- Lisoniy korpusni yaratishda bir til namoyandasining ikkichi til namoyandasi madaniyatini to'liq o'zlashtira olmasligi, vaholanki matnlarda ma'lum bir millatning madaniyati, hamda etnik kelib chiqish tarixi ham namoyon bo'ladi;

- Har bir areal uchun jamiyat boshqaruv tuzilmasining farqlanishi;

- Korpus dasturini tuzish imkoniyatini cheklanganligi;

Umumiy qilib aytganda huquqiy matnlar lisoniy korpusini yaratish murakkabligi uning terminologik, lingvomadaniy, hududiy areal shart -sharoitlari, etnolingvistik jihatlarida namoyon bo'ladi. Shuningdek grammatik qurilmalarni avtomatik tahlil qiluvchi dasturni yaratishning imkoniyati cheklanganligi tufayli tadqiqot davomida inson omili orqali jarayonlarni amalga oshirish talab qilinadi. Bizningcha, qonun hujjatlari korpusini ishlab chiqishda qo'yiladigan talablar sirasiga quyidagilarni kiritish lozim:

1. Tadqiqot ob'yekti bo'lgan til yoki tillar sohiblari rioya qilishi nazarda tutilgan amaldagi qonunchilik hujjatlari, xususan, konstitutsiya yoki unga tenglashtirilgan qonuni va tadqiqotning maqsadidan kelib chiqib, tanlangan sohaviy yuridik materiallari kiritilishi kerak;

2. Dasturiy ta'minotda „qidiruv“ tugmasining mavjudligi istagan so'z yoki so'z birikmalarini matndan qidirish imkonini beradi;

3. Har bir til korpusda so'zlar ba'zasining mavjudligi va umumiy korpuslarda ularga limitning cheklanmaganligi;

4. Ilmiy izlanish jarayonida tillarning qiyosiy korpusi yaratilganligini inobatga olib, tadqiqot ob'yekti bo'lmish qonun hujjatlari matnlarining minimum ikki tilda berilishi;

5. Yaratilgan til korpusi dasturiy ta'minotda N-gram til moduli asosida kiritilgan materillar statistikasini aniqlash imkonining mavjudligi;

6. Statistik ma'lumotlarni ifodalashda diagramma va boshqa usullardan foydalangan holda chastotali analiz qilish imkoniyatini yaratilganligi;

7. Lisoniy til korpusida ma'lumotlar ba'zasidagi matnlarning ma'lum bir jarmlar asosida tuzilishi;

Umumiy qilib aytganda huquqiy matnlar lisoniy korpusini yaratish murakkabligi uning terminologik, lingvomadaniy, hududiy areal shart -sharoitlari, etnolingvistik jihatlarida namoyon bo'ladi. Shuningdek grammatik qurilmalarni avtomatik tahlil qiluvchi dasturni yaratishning imkoniyati cheklanganligi tufayli tadqiqot davomida inson omili orqali jarayonlarni amalga oshirish talab qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. *Карташев. В.Н. Юридическая техника, тактика, стратегия и технология. Н. Новгород, 2000. ст. 167.*
- [2]. *Керимов. Д. А. Законодательная техника: науч.-метод. и учеб. Пособие. М.: НОРМАИНФРА-М 1998. ст.123.*
- [3]. *<https://www.usa.gov/state-local-elections> (murojaat sanasi: 02. 08. 2024.)*
- [4]. *<https://cyberleninka.ru/article/n/pravovoe-regulirovanie-vyborov-v-soedinennom-korolevstve-velikobritanii-i-severnoy-irlandii/viewer> (murojaat sanasi: 02. 08. 2024)*
- [5]. *https://www.democracy.ru/library/foreign/countries/australia/rus_1991-2.html (murojaat sanasi: 02. 08. 2024)*